



## ZAMONAVIY MASHRABSHUNOSLIK TARIXI

**Erkin Musurmanov Rabbimovich**

*Samarqand davlat chel tillar instituti*

*Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasini mudiri*

*filologiya fanlari doktori, professor*

**Yusupova Maxbuba Ahmat qizi**

*Samarqand davlat pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi*

*I bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy mashrabshunoslik taraqqiyoti, uning ilmiy-nazariy asoslari hamda Boborahim Mashrab ijodining yangi metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etilishi masalalari yoritiladi. Shuningdek, mustaqillik davri adabiyotshunosligida Mashrab merosining tasavvufiy, falsafiy va badiiy xususiyatlarini o'rganish jarayonlari tahlil qilinadi. Maqolada mashrabshunoslikning shakllanish bosqichlari, yetakchi olimlarning ilmiy qarashlari hamda zamonaviy tadqiqotlarda qo'llanilayotgan qiyosiy-tipologik, germeneytik va tarixiy-adabiy metodlarning ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Mashrab ijodining milliy va umuminsoniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim adabiy-estetik manba ekanligi asoslanadi.

**Kalit so'zlar.** Mashrabshunoslik, Rahimbobo Mashrab, o'zbek mumtoz adabiyoti, zamonaviy tadqiqotlar.

Boborahim Mashrab o'zbek mumtoz adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo'lib, uning ijodi xalqchilik, tasavvufiy-falsafiy qarashlar hamda insoniy kechinmalarning teran ifodasi bilan ajralib turadi. Shoir asarlarida erkin fikr, ilohiy muhabbat, adolat va haqiqat g'oyalari muhim o'rin egallaydi. Mashrab ijodini o'rganish nafaqat uning badiiy merosini chuqur anglash, balki o'zbek adabiyoti va madaniy tafakkuri taraqqiyotini tadqiq etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois adabiyotshunoslikda Mashrab hayoti va ijodining o'rganilish tarixi alohida ilmiy qiziqish uyg'otib kelmoqda.

Rahimbobo Mashrab haqidagi ilk ma'lumotlar shoirga zamondosh bo'lgan adiblar asarlarida o'z aksini topgan. XVII-XIX asrlarda yaratilgan ayrim tazkiralarda Rahimbobo Mashrab hayoti va faoliyati haqida katta-kichik ma'lumotlar keltiriladi. Dastlabki xabarlar Muhammad Bade' Malehoning 1689-1692-yillarda yozilgan "Muzakkir-ul as'hob" nomli tazkirasida uchraydi.<sup>40</sup>

<sup>40</sup> Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993. –166 б.



Mashrab hayoti va ijodiga oid asosiy asar “Devonai Mashrab” xalq qissasi hisoblanadi. Asar xalq kitoblari shaklida tuzilgan bo‘lib, unda Mashrab haqidagi hikoyalar va rivoyatlar nasriy yo‘lda bir syujet chizig‘ini hosil qiladi. Mashrabga nisbat beriluvchi she‘rlar esa bu hikoyalar bilan qorishiq gohida voqea-hodisalarga qovushmagan holda keltiriladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yevropaliklarning Turkiston hududida yashovchi ellar hayoti, tarixi, adabiyotiga bo‘lgan qiziqish kuchaydi. Rus sharqshunos olimlari Amir Alisher, Mirzo Bobur qatori Rahimbobo Mashrab faoliyati va adabiy merosini, ayniqsa, katta qiziqish bilan o‘rgandilar. XIX asrning 90-yillaridan boshlab mahalliy va rus kundalik matbuotida Mashrabning tarjimai holi va ijodiga oid ma‘lumotlar e‘lon qilindi, asarlari rus tiliga tarjima qilindi. Shoir she‘rlaridan ilk namunalar 1889-yil “Turkiston viloyatining gazetasi”da (26, 28, 34, 39 – sonlar) keltirildi. “Devonai Mashrab” qissasi asosida yozilgan “Namanganlik Mashrab devonaning ahvoli bayoni” deb ataluvchi maqolada Mashrabning “O‘rgandim”, “Kelur”, “Ko‘rgil” she‘rlari bosilib chiqdi. XIX asrning oxiri, XX asr boshlarida “Devonai Mashrab” va “Mabdai nur” kitoblari Toshkent va Kogon bosmaxonalarda litografik usulda chop etildi.

Asta-sekin chor hukumati matbuotida bid‘at va zulmat kushandasi bo‘lgan otashnafas shoir va uning ijodi bilan Rusiya fuqarolarini kengroq tanishtirish lozimligi haqidagi fikrlar paydo bo‘la boshlaydi. Jumladan, Turkiston arxeologiyasini, madaniyati va adabiyotini tadqiq qilgan mashhur rus arxeologi va sharqshunosi, professor Nikolay Ivanovich Veselovskiy (1848-1918-y.y.) o‘zining 1895-yilda nashr etilgan “Vostochnye zametki” (Sharqqa oid qaydlar) nomli kitobida: “Hajvgo‘y va hozirjavob devona Mashrab O‘rta Osiyoda juda mashhurdir, fikrimizcha turli diniy qarashlarda erkin fikrlilikni namoyon qilgan Mashrab chuqur diqqat bilan o‘rganishga sazovor shaxs... Devona doimo ruhoniylar bilan munozara qilgan va ulardan ustun chiqqan”, deydi.<sup>41</sup>

Mashrabnuoslik tarixiga oid sharqshunos olim Nil Sergeyevich Likoshinning xizmatlari ulug‘ bo‘ldi. N.S. Likoshin Turkistonda faoliyat olib borgan rus sharqshunoslari ichida mahalliy xalqning ma‘naviyati, tarixi, adabiyotiga nisbatan xolis yondashgan vakillaridan biri edi.

“Devonai Mashrab” qissasini rus tiliga tarjima qilgan N.S.Likoshin

---

<sup>41</sup> Веселовский Н. Памятник Ходжи Ахрара в Самарканде. — Восточные заметки. Сборник статей и исследований профессоров и преподавателей Имп. С. – Петербургского университета. СПб, 1895.



kitobga soʻz boshi yozib, Mashrab faoliyati, ustozlari - Bozor Oxun<sup>42</sup> va Ofoq xoʻja haqida muhim maʼlumotlarni eʼlon qildi. Olim Mashrab falsafasi va sheʼriyati haqida umumiy tushunchalar berib, tasavvufga oid izohtalab soʻz va iboralarni sharhladi. N.S.Likoshin ixtiyorida “Devonai Mashrab” qissasining Toshkent bosmaxonasida 1896- va 1899-yillarda chop etilgan ikki nusxasi va Nikolay Petrovich Ostroumov (1846-1930-y.y.) tomonidan taqdim etilgan bir qoʻlyozma nusxasi mavjud edi. Bularni jiddiy oʻrganib chiqqan Likoshin izlanishlarini yanada davom ettirdi. «Bundan tashqari, – deydi olim, - men V.P.Nalivkin maslahatiga koʻra, Mashrab qalamiga mansub boʻlgan «Mab dai nur» asari bilan tanishib chiqdim. Devona Mashrab tarjimai holiga doir maʼlumotlar toʻplab berishni iltimos qilib, tanishim Namangan uyezdi Chust shahri qozisi domullo Masʼud Muhammad Murod qozikalonga murojaat qildim. U oʻgʻli shayxulislom Nodim bilan meni qiziqtirgan Mashrab tarjimai holiga oid maʼlumotlarni yuborib turdi ».<sup>43</sup> N.S.Likoshin Mashrab haqida bir talay maʼlumotlarga ega boʻlgach, shoirning ustozlari Bozor Oxun va Ofoq xoʻja haqida maʼlumot toʻplashga kirishadi. Jumladan, u keyingi arbob haqida maʼlumot yigʻar ekan, Qashqarning bosh konsuli, sharqshunos Nikita Olegovich Petrovskiydan Margʻilon viloyatida Ofoq xoʻjaning avlodi yashayotganligidan xabar topadi, u odam bilan, yaʼni Said Muhammad Hakimtoʻra Kattatoʻra bilan aloqa oʻrnatib, undan Ofoq xoʻja haqidagi maʼlumotlarni olishga erishadi. Nihoyat, Likoshin kerakli manba va maʼlumotlarni qoʻlga kiritgach, «Divana-i-Mashrab» asarini yozadi. Biroq zarur mablagʻning boʻlmaganligi sababli, asar oʻz vaqtida nashr etilmay qolib ketadi. Nihoyat, oradan oʻn yil vaqt oʻtgach, 1910-yilda “Divana-i-Mashrab” “Srednyaya Aziya” (Oʻrta Osiyo) jurnalida<sup>44</sup>, 1915-yilda Samarqand viloyat statistika komitetida rus tilida bosilib chiqadi. Oradan 81 yil oʻtgach, bu ajoyib asar Muhsin Zokirov saʼy-harakatlari bilan “Zvezda Vostoka” oynomasida qayta nashr etildi<sup>45</sup>.

1899-1913-yillarda      Pyotr      Petrovich      Semenov-Tyan-Shanskiy

<sup>42</sup> Oʻzbek tilining izohli lugʻatidagi qaydlarning birida «Xalq ichida uygʻurlarga, qashqarliklarga qoʻyilgan laqab» deb taʼrif beriladi. Balki, bu termin asli “oq xun” shaklida boʻlib, keyin oʻzgarishga yuz tutgan. Bozor Oxun nomi ham ustozning asli kelib chiqishi Sinszyandan ekanligiga, uning Qashqar dindorlari bilan yaqin tanish boʻlganligi bejiz emasligiga bir ishoradir.

<sup>43</sup> Лыкошин Н. С. Дивана-и-Машраб. Жизнеописание популярного представителя мистицизма в Туркестанском крае //Средняя Азия. Ежемесячное литературно-историческое издание. Т.: Тип. Туркистан. т-во печати. дела. 1910. – №1. – С.72.

<sup>44</sup> Лыкошин Н. С. Дивана-и-Машраб. – Т.,1910. – №112; 1911. – №3-8.

<sup>45</sup> Дивана-и-Машраб. (Перевод с тюркского Н. С. Лыкошина.) // Звезда Востока. 1992. №9, 10. – С. 6-59.



muharrirligida nashr bo'lgan "Rusiya. Vatanimiz-ning to'liq jug'rofiy tafsifi" nomli 11 tomli asarning 1913-yili nashr bo'lgan "Turkiston o'lkasi: Sirdaryo viloyati, Amudaryo bo'limi, Zarafshon va Pomir bilan Farg'ona viloyati" deb nomlanuvchi XI - tomida Mashrab haqida muhim ma'lumot berildi. Unda shunday deyiladi: "1640-yilda Namanganda tavallud topgan Devonai Mashrab Turkistonning eng mashhur mutasavvuf mualliflaridan biri sanaladi. Uning asarlari ko'pchilik mahalliy kishilarga tanish, ismi esa qat'iy barchaga ma'lum. Uning she'rlari (g'azallari) roviy va qo'shiqchilar tomonidan ijro etiladi".

Sho'rolar davrida Mashrab haqidagi ilk maqolani rus va o'zbek arxeologi, tarixchi-sharqshunosi Vasilii Lavrentyevich Vyatkin (1869-1932 ) 1923-yili "Turkiston Sharqshunoslik instituti to'plami"<sup>46</sup>da e'lon qildi. Unda Mashrab xalq ichida, xotin-qizlar orasida ancha mashhur bo'lganligi qayd qilingan, ayrim she'rlari va ularning ma'nolari yoritilgan. V.L.Vyatkinning mulohazasiga ko'ra, "Mab dai nur" asarining muallifi o'zining asl ismini Shoh Mashrab taxallusi bilan o'zgartirgan.

O'zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o'zbek adabiyoti asoschilaridan biri, O'rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili Abdurauf Fitrat (1886-1938 ) 1930- yilda "Ilmiy fikr" oynomasida e'lon qilgan "Mashrab" nomli maqolasi<sup>47</sup> bilan o'zbek adabiyotshunosligida shoir hayoti va merosini o'rganish tarixiga debocha yasagan. A.Fitratning maqolasi ma'lum ma'noda V.L.Vyatkinning "Ferganskiy mistik Divana-i-Mashrab" nomli maqolasiga javob tarzida yozilgani sababli muallif Mashrab hayoti va ijodi aks etgan manbalarni sanab o'tishda rus sharqshunoslari asarlarini ham qayd qilib o'tgan. U shuningdek, Muhammad Bade' Malehoning "Muzakkir-ul as'hob", Abdulmutallib xo'ja Fahmiyning "Tazkirai Fahmiy", Muhammad Hakimxon To'raning "Muntahab ut-tavorix", Mirzo Olimning "Ansob us-salotin", Majzub Namangoniyning "Tazkirat ul-avliyo" asarlari haqida ham ma'lumotlar bergan. Olim Rahimbobo Mashrab haqida, asosan, shu manbalarga tayanib fikr yuritgan.

1937-yil 17-martda "Qizil O'zbekiston" gazetasida I.Sulton va I.Ahmedovlarning "Asl Mashrab" nomli maqolalarida, 1939-yili Olim Sharafitdinov "15 yil ichida o'zbek sovet adabiyoti" to'plamida bosilgan maqolasida Mashrab haqida o'z mulohazalarini bildirishgan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda mashrabshunoslikka oid qator sezilarli ishlar qilindi. Jumladan, "O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi"da

---

<sup>46</sup> Вяткин В., Ферганский мистик Дивана-и-Машраб, в кн.: Сборник Туркестанского Восточного института. – Ташкент, 1923. – С.24-34.

<sup>47</sup> Фитрат А. Машраб //Илмий фикр. – 1930. – №1, 40-57-б.



(Toshkent, 1945-y.), “O‘zbek adabiyoti” nomi bilan ataluvchi ko‘p tomlik xrestomatiyaning uchinchi tomida (Toshkent, 1959-y.), turli antologiyalarda Mashrab she’rlaridan namunalar berildi. 1958-yili Abduqodir Hayitmetov Porso Shamsiyev bilan hamkorlikda Mashrabning “Tanlangan asarlar”ini so‘z boshi bilan nashrdan chiqarishdi. 1959-yili G‘afur G‘ulomning “Ikki Mashrab” maqolasi e‘lon bo‘ldi.<sup>48</sup> Unda davr ruhi aks etgani holda Rahimbobo Mashrab va Mashrabi Soniy asarlari qiyosiy tahlil qilindi, shoirlarning g‘oyaviy dunyoqarashlari haqida qiziqarli mulohazalar keltirildi. 1963-yilda Abdurashid Abdug‘afurov (1931-2005) tomonidan shoirning tanlangan she’rlari to‘plami e‘lon qilindi.

Yuqoridagi tadqiqotlarga, ilmiy risola va maqolalarga asoslanib aytish mumkinki, o‘tgan asrning 80-yillari boshlariga kelib mashrabshunoslik ilmida muayyan siljishlar ro‘y berganiga, shoir ijodi bir necha marta yangi so‘zboshilar bilan nashr qilinganiga qaramay, Mashrab ijodiyotining anchagina qismi hali kitobxonlar qo‘liga yetib bormagan edi. Rahimbobo Mashrab ijodi juda ko‘p olimlar tomonidan o‘rganilgan. Maqolada biz ba’zilarini keltirib o‘tdik. Mashrabshunoslik – Rahimbobo Mashrab hayoti va ijodini o‘rganadigan ilmiy yo‘nalishdir. Zamonaviy mashrabshunoslikda shoirning falsafiy qarashlari, tasavvufiy g‘oyalari va adabiy merosi chuqur tadqiq etilmoqda. Olimlar Mashrab ijodining ma’naviy-ahloqiy ahamiyatini yoritib, uning o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rnini ilmiy asosda tahlil qilmoqdalar.

## ADABIYOTLAR

1. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993. –166 б.
2. Веселовский Н. Памятник Ходжи Ахрара в Самарканде. – Восточные заметки. Сборник статей и исследований профессоров и преподавателей Имп. С.-Петербургского университета. СПб, 1895.
3. Лыкошин Н. С. Дивана-и-Машраб. Жизнеописание популярного представителя мистицизма в Туркестанском крае //Средняя Азия. Ежемесячное литературно-историческое издание. Т.: Тип. Туркистан. т-во печати. дела. 1910. – №1. – С. 72.
4. Лыкошин Н. С. Дивана-и-Машраб. – Т.,1910. – №1-12; 1911. –№3-8.
5. Дивана-и-Машраб. (Перевод с тюркского Н. С. Лыкошина.) // Звезда Востока. 1992. – №9, 10. – С. 6-59.

---

<sup>48</sup> Фафур Гулом. Икки Машраб. Қизил Ўзбекистон. 1959. 12 июль. Қайта нашри: Мукаммал асарлар тўплами. Ўн биринчи том. – Т.: Фан, 1989.- 496 б.



6. Вяткин В., Ферганский мистик Дивана-и-Машраб, в кн.: Сборник Туркестанского Восточного института. – Т., 1923. – С. 24-34.
7. Фитрат А. Машраб //Илмий фикр. – 1930. – №1. – 40-57-б.
8. Гафур Гулом. Икки Машраб. Қизил Ўзбекистон. 1959. 12 июль. Қайта нашри: Мукаммал асарлар тўплами. Ўн биринчи том. – Т.: Фан, 1989. – 496 б.